



## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA JINOYAT SUBMADANIYATI – ARGO, KRIMINAL INVEKTIV LEKSİKA VA VULGARİZM TUSHUNCHALARI HAMDA ULARNING KONTEKSTUAL FARQLI JIHATLARI

**Muallif:** Satimova Dilafruz Numonjonovna<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Andijon davlat universiteti doktoranti (DSc)<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15174215>

### ANNOTATSIYA

Tadqiqotda zamonaviy tilshunoslikda jinoyat submadaniyati, argo, kriminal invektiv leksika va vulgarizm tushunchalari ta'rifi hamda o'xshash va differensial jihatlari tahlil qilinadi. Jinoyat submadaniyatining tilshunoslik va sotsiologiya kontekstidagi vazifasi hamda ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, argo, invektiv leksika va vulgarizm elementlarining tildagi ifodalanish shakllari, ularning ijtimoiy qo'llanilishi, o'zaro munosabatlari misollar yordamida ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** submadaniyat, kriminal invektiv leksika, argo, fenya, konflikt, vulgarizm, diskreditatsiya, kontekstual, konnotatsiya

### KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda jinoyat submadaniyati va uning tildagi ifodalari, xususan, argot, kriminal invektiv leksika va vulgarizm kabi elementlar orqali o'rganilishi kriminal olamni ochish uchun ahamiyatli. Til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki jamiyatdagi turli guruhlarning dunyoqarashini va ijtimoiy holatini aks ettiruvchi kuchli mexanizm hisoblanadi. Jinoyat submadaniyati, o'z navbatida, jinoiy guruhlarning tilida shakllanadi va ular orqali o'zining ijtimoiy, madaniy va axloqiy me'yorlarini ifodalaydi. Jinoyatchilik, har qanday jamiyatga xos bo'lgan hodisa hisoblanadi. Mazkur hodisa o'zining belgilari va xususiyatlariga ega. Ammo jinoyatchilik submadaniyatini bevosita jamiyatning umumiyligi madaniy davomiyligi sifatida qabul qilish also to'g'ri emas.

### ASOSIY QISM

Jinoyat submadaniyati – jinoyatchilik bilan bog'liq guruhlarning turmush tarsi, xulq atvori va noqonuniy faoliyatini tartibga soluvchi ma'nnaviy va moddiy qadriyatlar tizimi [6]. Bu submadaniyat o'zining maxsus ijtimoiy me'yorlari va qoidalari orqali jinoyatchilikka oid xatti-harakatlar tartibini shakllantiradi va jinoyat sohasidagi alohida guruhlarning ichki intizomini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu submadaniyat ijtimoiy qatlamning alohida bir triga xos bo'lib, undagi qadriyatlar tizimi jamiyatning umumiyligi qadriyatlaridan keskin farq qiladi. Shu nuqtaiy nazardan, jinoyat submadaniyati jamiyatning keng ijtimoiy madaniyatiga qarama-qarshi bo'lgan, uning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Jinoyat olami so'zlashuv nutqi esa maxsus ijtimoiy guruhlar tomonidan shakllangan bo'lib, bu qatlam ichki aloqada o'ziga xos yashirin muloqot vositasi sifatida yuzaga chiqadi. Kriminalistik-invektiv leksika esa jinoyatchilik olamida ishlatiladigan va maxsus semantik yoki stilistik ma'noga ega bo'lgan so'z va iboralarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur leksikaning asosiy xususiyati, uning ko'pincha yashirin yoki kodlangan shaklda ifodalanishidir, sababi, ushbu qatlamning keng jamoatchilik uchun tushunarsiz bo'lishini ta'minlaydi.

Kriminalistik leksika jinoyat olamidagi faoliyatni ifodalash bilan birga, ko'pincha haqoratli (invektiv) yoki keskin salbiy baho tusiga ega bo'ladi. Leksik birlikning lingvistik jihatlari, odatda metaforalar va qiyosiy obrazlarga asoslanagan bo'lib, ular jinoyat olamida ozaro ishonchni ta'minlash va begonalar ma'lumotni yashirish maqsadida qo'llaniladi [4:128]. Shu sababli, kriminalistik-invektiv leksika til tizimining normativ qatlamidan chetda, chegaraviy ijtimoiy qatlam sifatida saqlanib keladi.

Rus milliy madaniyatida jinoyat olamiga xos tilida ishlatiladigan so'zlar va ifodalar turli atamlar bilan ifodalanadi. Jinoyatchilar tiliga odatda "кriminalный жаргон" yoki "арго" deyiladi, mahbuslar orasida keng tarqalgan maxsus leksikaga esa "феня" atamasi ishlatiladi. Haqoratli yoki ijtimoiy jihatdan salbiy so'zlar esa "инвективная лексика" atamasi bilan izohlanadi. Mahbuslar jargoni tilida eng mashhur atama "феня" hisoblanadi. Qizig'i shundaki, bu atamaning kelib chiqishi jinoyat olami bilan bog'liq emas. "Феня" so'zi eski "ofenya" atamasidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z mayda tovarlar bilan savdo qiluvchi savdogarlar uchun qo'llangan [3:37]. Bunday savdogarlar o'zaro muloqotda o'ziga xos maxsus dialektdan foydalangan, ya'ni "ofencha gaplashgan". XX asrning 10-yillariga kelib, "fenyada gaplashmoq" iborasi shakllangan bo'lgan, u mahbus jargoni leksikasidan foydalanishni anglatadi. Manbaning tarixiy ildizlari "ofen" savdogarlari bilan bog'liq bo'lib, ular o'zaro maxsus muloqot qilish usuli orqali jinoi olamga xos nutq shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Ingliz tilshunosligida esa jinoyat olamining tiliga nisbatan "argot", "criminal jargon", yoki "cant" kabi atamalar ishlatiladi. Ingliz tilida "argot" ko'pincha maxsus ma'nolar va yashirin leksikani ifodalash uchun ishlatiladi. "Cant" atamasi esa XVII–XVIII asrlardan boshlab, maxsus ijtimoiy guruhlarning maxfiy muloqot vositasini ifodalash uchun qo'llanilgan [2:207]. Ingliz tilidagi substandart leksika bo'yicha lug'at muallifi J.E. Layter ta'kidlashicha, ijtimoiy qatlamlarning maxfiy tili sifatida tilning eng qadimiy shakli "cant" hisoblanadi. Ushbu lingvistik hodisa qadimgi Britaniyaning jinoyat olamiga tegishli bo'lib, keyinchalik uning o'rnini "argot" egallagan. Fransuz tilidagi "argot" va ingliz tilidagi "cant" atamalari o'zaro sinonim sifatida qaraladi va jinoyatchi guruhlar tomonidan maxfiy muloqot uchun ishlatilgan. Ushbu fenomenni boshqa bir qator tilshunoslar va leksikografik tadqiqotchilar, jumladan, R.Spirs [8:7] va V.A.Xomyakov [10:43] kabi olimlar ham tasdiqlab, ushbu atamalarning o'xshahsliklarini qayd etishgan.

Argo – ma'lum bir ijtimoiy qatlamning qiziqarli, mashg'ulotlari va yoshi kabi omillarga asoslangan holda, nutqdagi kommunikatsiya mazmunini yashirish maqsadida ishlatiladigan leksik birliklardir. Bu leksikalar umumxalq tili tarkibidagi so'zlarning og'zaki nutqdagi soddalashtirilgan sinonimlari, omonimlari yoki ko'p ma'noli shakllari sifatida yuzaga keladi [7:33]. Argo so'zları keng omma uchun tushunarsiz bo'lib, faqatgina shu ijtimoiy guruh a'zolari tomonidan anglashiladi. Ular maxsus yashirin maqsadga xizmat qilgan holda, "parol" vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, ayrim

guruqlar uchun argo kriptologik (yashirin va maxfiy) maqsadlarni ham o'z ichiga oladi, bu uning lingvistik va kommunikativ funksiyasini yanada boyitadi.

Argodan farqli o'laroq, invektiv leksika o'zining kuchli konnotatsiyasini to'laqonli ravishda mojaro yoki ziddiyatli matn ichida namoyon etadi. Bu leksika matndan ajratib olib yoki alohida lug'atlar asosida o'rganilganda bunday darajada ifodalilikka ega bo'lmasligi mumkin [4:129]. Milliy tillarning barcha turlarida mojarolilikning yagona tasnifini taklif qilish uchun lingvistik va axloqiy mazmun jihatdan bir qator xususiyatlarni hisobga olish lozim.

Tadqiqotchi E.A.Petrova "invektiv leksika" atamasini inglizcha invective – "insulting, abusive – tanqidiy nutq, so'kinish" ma'nosidan kelib chiqqan bo'lib, bu tushuncha ijtimoiy subyektni nishonga oluvchi matn orqali ijtimoiy diskreditatsiya qilish madaniy fenomenini anglatadi [4:128], deydi. Shuningdek, u ma'lum bir madaniy an'anada haqoratomuz yoki tajovuzkorlikni ifodalovchi, barqaror til qurilmasini bildiradi. Biroq, ingliz tiliga bu so'z o'zlashma bo'lib, aslida invektiv so'zining kelib chiqishi lotin va fransuz tillariga borib taqaladi. Kechki lotin tilida (Late Latin): invehere – hujum qilish tanqid qilish ma'nosini anglatadi, bu so'zdan invectives (attacking-hujumkor, tanqidiy) shakllangan. Keyinchalik, fransuz tilida infectif, -ive suffiksi – tanqidiy, haqoratomuz shakllari paydo bo'lgan. O'rta ingliz tili (Middle English) da ushbu so'z dastlab "inveigh" sifatida qo'llanilgan. Keyinchalik (Late Middle English), inventive – reviling, abusive ma'nosini olgan. Shundan so'ng, Lotin tilidagi so'z birikmasini "invectiva oratio – tanqidiy yoki haqoratomuz nutq" ishlatalishni boshlagan [1]. Demak, invektiv leksika – bu haqoratomuz, tanqidiy yoki o'ta salbiy mazmuni ifodalovchi tildan iborat. Ushbu so'zlar odatda agressiv, tanqidiy yoki masxaralovchi konnotatsiyaga ega bo'lib, og'zaki nutqda kimgadir yoki biror narsaga nisbatan tahdid yoki kamsituvchi munosabatini bildirish uchun qo'llaniladi. Jinoyat olamida esa, ushbu leksika madaniy-diskursiv fenomen sifatida ijtimoiy qiyosiy tahlilda ko'plab milliy tillarning jinoyat jargonlari bilan o'xshashliklarga ega. Masalan, ingliz tilida "argot", "slang", rus tilida "феня" va h.k.lar.

Kriminal invektiv leksikaga kelsak, bu jinoyat olami vakillari tomonidan qo'llaniladigan, salbiy yoki haqoratomuz mazmuni ifodalovchi maxsus nutqiy birliklar to'plamidir. Mazkur leksika madaniy va ijtimoiy jihatdan jinoyatchilik submadaniyatining ajralmas qismi bo'lib, tilni yashirish yoki kodlangan kommunikatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi. U jinoyat olamining ichki normalarini, qoidalarni va ijtimoiy muhitni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Yuqoridaagi fenomenga nisbatan yana bir yondosh tushunchani ko'rishimiz mumkin, u ham bo'lsa ko'pchilikka ma'lum bo'lgan "vulgarizm" atamasidir. U ham lotin tilidan o'zlashgan bo'lib, vulgaris – "dag'al va qo'pol" [11:76] so'z sifatida til tizimida madaniy, ijtimoiy yoki ahloqiy me'yorlarga zid bo'lgan odobsiz yoki haqoratomuz leksik birliklar to'plamidir. Vulgarizm odatda muloqotning norasmiy kontekstlarida nutqda hissiyotlarni ifodalash, norozilik bildirish yoki ijtimoiy chegaralarni buzish uchun qo'llaniladi. Bu leksika turli madaniyatlarda axloqiy va sotsiokultural me'yorlar doirasida baholanadi.

Vulgarizm va invektiv leksika bir-biriga yaqin bo'lishiga qaramay, ularning o'ziga xos farqlari mavjud:

Xususiyatlar	Vulgarizm	Invektiv leksika
<b>Semantik mazmuni</b>	Odobsiz, madaniy va axloqiy me'yorlarga zid bo'lgan, har doim ham haqoratni ifodalamaydigan dag'al leksika	Aniq haqoratomuz ma'noga ega bo'lgan, nutqiy agressiyani ifodalovchi, tinglovchini kamsitishga yo'naltirilgan salbiy so'z va iboralar
<b>Qo'llanish maqsadi</b>	Odatda ekspressiv (hissiy) reaksiyalarni, salbiy emotsiyalarni yoki qattiq munosabatni ifodalash uchun ishlataladi	Muloqotda nutqiy agressiyani ifodalash, tinglovchini tahqirlash yoki konflikt vaziyat hosil qilish uchun atayin qo'llaniladi
<b>Konnotatsiyasi</b>	Qo'pol, odobsiz, ammo ayrim hollarda neytral yoki hazil-kinoyaviy tusga ega	Keskin salbiy baholashga ega, madaniy yoki ijtimoiy noqulaylikni ifodalaydigan og'ir ton
<b>Konflikt diskursidagi ahamiyati</b>	Konflikt vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin, ammo doim ham janjal yoki keskin vaziyatni kuchaytiruvchi asosiy omil emas	Odatda janjal yoki konflikt vaziyatini kuchaytirish, tinglovchini aggressiv tarzda kamsitish yoki nizoli vaziyatni qo'zg'ashda asosiy vosita bo'ladi
<b>Milliy-madaniy xususiyati</b>	Ko'proq mahalliy yoki madaniy kontekstga bog'liq bo'lib, boshqa madaniyatlarda tushunilishi cheklangan	Xalqaro xususiyatga ega, turli madaniyatlarda bir xil konfliktiv va haqoratlovchi ta'sir uyg'otishi mumkin

Anglashiladiki, vulgar leksika tilning stilistik qatlarni o'rganishga qaratilib, semantik va stilistik tavofutlarni qamrab oladi. Invektiv leksika esa konfliktli diskurslar, jinoyat nutqi va ijtimoiy-madaniy diskreditatsiya yoki agressiyani ifodalovchi maxsus til birliklari sifatida qabul qilinadi. Tadqiqotda ta'kidlanganidek, har bir jinoiy elementning mustaqil ta'rifi, tushunchasi va qo'llanilish doirasi mavjud.

Mazkur qatlamlarni, Tohir Malikning "Shaytanat" [9:480] qissasi hamda Mario Puzoning "Cho'qintirgan ota" (The Godfather) [5:496] asarida aks etgan jinoyat olami so'zlashuv nutqi va kriminalistik-invektiv substandart leksika orqali tahlil qilamiz. Bu leksika o'zbek va ingliz jamiyatidagi jinoyatchilik submadaniyatining ba'zi elementlarini qamrab oladi.

"Shaytanat"da qo'llanilgan vulgarizm va kriminal invektiv leksika: hezalak, hayvon, haromi, itvachcha, xunasa, suvarak, qanjiq, to'ng'iz, ablah, gazzanda, galvars, lattasan, ko'zdan yoqot, yag'ir, ovsar, g'alamis, tirraqi, so'tak, palid va h.k.

U o'rnidan shart turib baqirdi:

— Yo'qol, gazzanda! Men seni odam deb jinnixonadan chiqarib oldimmi hali! (Tohir Malik. Shaytanat. Qissa. 1 – kitob, 152)

Kontekstdagi gazzanda leksemasi pragmatik-semantik jihatdan vulgarizm emas, balki kriminal invektiv (haqoratlovchi) leksika sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur leksema odatda turli xil hasharot yoki zararli jonivor ma'nosini anglatsa-da, berilgan muloqot vaziyatida uning semantikasi kengayib, bezorilik qiluvchi, yaramas, zarar yetkazuvchi, bezovta qiluvchi shaxs kabi konnotativ salbiy ma'nolarga ega bo'lgan haqoratli so'z shakliga aylangan. Shuningdek, Yo'qol gazzanda! shaklida ishlatalishi orqali bu leksema tinglovchini aggressiv tarzda kamsitishga qaratilgan kriminal nutqiy aktning (konfliktiv-invektiv) asosiy elementi hisoblanadi. Qo'llanilgan metafora jinoyat olamidagi nutqiy

jarayonda odatda shaxslararo munosabatlar keskinlashgan, mojaroli diskurs sharoitida foydalanilgan va dialogning umumiyl pragmatik ohangini jiddiy kuchaytirgan.

Buyruq berilishi bilan Chuvrindi: Balki ablalilik qilgandir, lekin dunyoda undan besh battar ablalilar yashab yurganida u ham tirik qolsa bo'lardi», degan aniq bir to'xtamga keldi. (Tohir Malik. Shaytanat. Qissa. 2 – kitob, 95)

Berilgan muloqot vaziyatida ablal so'zi kuchli salbiy baho beruvchi haqorat sifatida qo'llangan. Leksik ma'nosi jihatidan u xulq-atvori tuban, yaramas axloqli odam degan mazmunni anglatadi. Kontekstdagi personaj bu so'z orqali adresatning axloqiy sifati past, ishonchsz kishi ekanini ifodalayapti. Ablal hissiy-ekspressiv tonda aytilgan bo'lib, mazmunan odobdan tashqari haqorat vazifasini bajaradi. So'z odatda so'kinish ohangida qo'llanar ekan, bu holatda ham u vulgarizm sifatida xizmat qilayotganini ko'ramiz. Vulgarizm – adabiy tilda qo'llanmaydigan, qo'pol va yoqimsiz ma'nodagi so'z bo'lib, keng jamoatchilikka tushunarli, ammo odob me'yorlariga zid ekspressiyani ifodalaydi. Ablal ham vulgarizm sifatida keng tarqalgan qo'pol va yoqimsiz haqorat turi bo'lib har kimga tushunarli haqoratomuz so'z sanaladi. Kriminal invektiv leksika esa muayyan jinoyatchi submadaniyatga xos, tor doiradagi argolarni qamrab oladi. Ablal so'zi esa maxsus kriminal argo emas – u umumxalq tilidagi haqorat. Vulgarizm sifatida ablal odatiy nutqda qo'llansa-da, jinoyatchilar ham undan foydalanishi mumkin, lekin u jinoyat olamiga xos maxsus atama emas.

Vulgarizm va kriminal invektiv leksika mazmunan tutashadi – ikkisi ham noadabiy (adabiy me'yordan tashqari) qatlamga mansub, qo'pol ekspressiyani bildiruvchi haqoratli so'zlardir. Har ikkala holatda ham bunday so'zlar kommunikativ vaziyatda tajovuzkor munosabatni ifodalash, suhbatdoshni kamsitish yoki hissiy bosim o'tkazish uchun ishlataladi. Masalan, oddiy odam jahl ustida ablal deb so'ksa, jinoyatchi ham xuddi shunday vaziyatda shu so'zni aytishi mumkin – ya'ni konfliktli muloqotda, g'azab yoki nafrat ifodasida, bu so'z birday qo'llanishi mumkin. Ikkala tur so'zlar ham odob me'yoriga zid bo'lgani uchun rasmiy-uslubiy nutqda ishlatilmaydi; faqat og'zaki yoki badiiy nutqda personaj nutqini xoslashda uchraydi. Shuningdek, vulgarizm ham, kriminal haqorat ham keskin ekspressiv bo'yoqqa ega – ular nutqda kuchli hissiyot uyg'otadi va suhbatga qo'pol, ehtirosli ohang beradi.

"Cho'qintirgan ota"da qo'llanilgan vulgarizm va kriminal invektiv leksika: fucking sonofabitch – haqorat, o'ta qo'pol so'zlashuv shakli, screw – zo'ravonlik yoki aldashni ifodalovchi qo'pol va vulgar shakldagi fe'l, balls – jasorat yoki qo'pol tarzda kuch-qudratni ifodalovchi og'zaki vulgarizm, guinea – haqoratli atama, bastard – ablal, tuban odam, son of a bitch – tahqirlash uchun ishlataladi, bitch – ayolga qaratilgan haqorat, strunz – axlat, tuban odam, dago – kamsituvchi so'z, greaseball/greaser – yog' bosgan, iflos, crap – yolg'on gap va h.k.

Roman qahramonlari odob normalaridan chetga chiqqan qo'pol so'zlarni tez-tez qo'llashadi. Masalan, Sonni Korleone Federal agentlarga nisbatan g'azabini Those lousy bastards, they don't respect anything degan so'zlar bilan ifodalaydi. Jumladagi bastard so'zi ingliz tilida asli nikohsiz tug'ilgan bola degan ma'noni anglatsa-da, mazkur kontekstda u haqoratomuz vulgarizm (dag'al so'z) sifatida qo'llangan. Bastard so'zining denotativ ma'nosi – haromni, otasiz tug'ilgan bola. Biroq, konnotativ ma'nosi va nutqdagi funksiyasi keskin salbiy: u kishini haqoratlash, kamsitish uchun ishlataladi. Sonni ushbu so'z orqali federal agentlarni kamsitib, ularga nisbatan nafratini oshkora bildiradi.

Boshqa bir misolda, Korleone oilasi raqiblari o'z dushmaniga "Sitsiliyacha xabar" yuborishadi: The fish means that Luca Brasi is sleeping on the bottom of the ocean, ya'ni to'g'ri ma'noda baliq o'ralgan paket Luka Brazining dengiz tubida "uxlayotganini" bildiradi. Qo'llanilgan metaforik-majoziy ifoda oddiy tasvir bo'lib ko'rinsa-da, jinoyatchilar submadaniyatida o'ta tahdidli ma'noga ega: Luca Brasi sleeps with the fishes iborasi uni o'ldirib, jasadi suvga tashlanganini anglatadi. Bu – jinoiy invektiv leksikaga oid ibora, ya'ni mafiyozlar o'zaro muloqotda ishlataidan, boshqa birovni qo'rqitish yoki kamsitish maqsadidagi maxsus argot ifodadir.

## XULOSA

Argo, vulgarizm va invektiv leksika – substandart qatlarning til madaniyati me'yorlaridan chekinuvchi turli shakllari bo'lib, ularning har biri o'zining xos struktur-semantic va funksional-pragmatik xususiyatlariga ega. Argo o'ziga xos yopiq guruh tilidir va aynan guruh ichidagi aloqa jarayonini begona odamlardan yashirishga xizmat qiladi. Vulgarizm esa ijtimoiy etik va axloqiy me'yorlarga zid bo'lgan, tilning qo'pol va odobsiz, hissiy ekspressiv qatlamini ifodalaydi hamda asosan salbiy hissiy munosabatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Kriminal invektiv leksika esa tinglovchini haqoratlash va agressiv munosabat orqali ruhiy bosim ostiga olishga xizmat qiluvchi, keskin salbiy ekspressiv pragmatik yuklamaga ega bo'lgan nutq birliklaridir. Mazkur uch substandart birliklar guruhi bir-biridan til qatlamiga tegishliligi, kontekstual funksional yuki va qo'llanilish doirasi jihatdan keskin farqlanadi, lekin umumiy holda barchasi standart tildan chekingan holda nutqiy ifoda kuchini oshirish vositasi sifatida qo'llanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Merriam–Webster Dictionary. – USA: Fogware Publishing Windows, 2020. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/invective>
2. Partridge E.A. Dictionary of the Underworld. British and American. – Great Britain: Routledge Revivals, 2017. – P. 207.
3. Павлова В.Д. Язык криминальных субкультур: влияние жаргонизмов на современное состояние русского языка // Молодой юрист. – Москва: Юрист, №2/2022. – С. 36-40.
4. Петрова Е.А. Исследование инвективной лексики в конфликтном дискурсе // Общие вопросы языкоznания. Лингводидактика. Юрислингвистика, 2022. – С. 126-135.
5. Puzo Mario. The Godfather. 50th Anniversary ed., with a new introduction by Francis Ford Coppola. – USA: Penguin Publishing Group, 2005. – 496 p.
6. Савватеев В.А. Криминальный язык. Тюремный жаргон. / Научно-практическая интернет-конференция "Язык и межкультурная коммуникация". Интернет конференции Сибирского юридического университета, 2023. <https://conf.siblu.ru/kriminalnyy-yazyk-tyuremnyy-zhargon>
7. Сатимова Д.Н. Инглиз ва ўзбек ёшлар сленгининг қиёсий таҳлили. Фил.фан.фалс.док. (PhD)...дисс. – Андижон, 2020. – 156 б.
8. Spears R.A. Slang and Euphemism. – New York: Jonathan David Publishers, Inc. Middle Village, 1981. – 448 p.
9. Tohir Malik. Shaytanat. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2016. – 480 b.



10. Хомяков В.А. Введение в изучение сленга – основного английского просторечия. Монография. – Вологда: Областная типография, 1971. – 102 с.
11. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча–ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 376 б.

